

SOLIQ TIZIMINING JAMIYAT RIVOJIDAGI ROLI

Turmamatova Shaxzoda Ochildi qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Yurtimizda iqtisodiyotni rivojlantirish davrida soliqlar va ularga bo'lgan majburiy to'lovlar davlat xazinasining asosiy daromad manbasi hisoblangan. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilangan tartibda undiriladi. O'zbekiston Respublikasi bosh qomusi-mamlakat konstitutsiyasining 51 va 123-moddalarida ham fuqarolarning burch va majburiyatlaridan biri sifatida belgilangan. Soliq qonunchiligida soliq tizimi qisqaroq talqin qilinib bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq boj va majburiy to'lovlarning yig'indisi soliq tizmi deb yuritiladi. Mazkur maqoladi soliq turlari, soliqqa tortish tog'ri va ehri soliqlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Soliq, pul munosabatlari, budjet.*

АННОТАЦИЯ

В период экономического развития нашей страны налоги и обязательные платежи по ним являлись основным источником дохода для государственной казны. Налоги и другие обязательные платежи взимаются в установленном порядке. Статьи 51 и 123 Конституции Республики Узбекистан также определяют их как одну из обязанностей и обязательств граждан. В налоговом законодательстве налоговая система толкуется более кратко, а совокупность налогов и обязательных платежей, имеющих одинаковую сущность и образующих централизованный денежный фонд, называется налоговой системой. В данной статье рассматриваются виды налогов, прямые и косвенные налоги.

Ключевые слова: *Налоги, денежно-кредитные отношения, бюджет.*

ABSTRACT

During the period of economic development in our country, taxes and mandatory payments to them were the main source of income for the state treasury. Taxes and other mandatory payments are collected in accordance with the established procedure. Articles 51 and 123 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan also define them as one of the duties and obligations of citizens. In tax legislation, the tax system is interpreted more briefly and the sum of taxes and mandatory payments that have the same essence and form a centralized monetary

fund is called the tax system. This article discusses the types of taxes, direct and indirect taxes.

Keywords: *Tax, monetary relations, budget.*

KIRISH

Soliqlar va ularning turlarini o'rganishning sabablaridan biri bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyatining o'sib borayotganini sabab qilsak bo'ladi. Negaki hozirgi kunda insonlar hayotida soliqlarning ahamiyati yuqori desak bo'ladi. Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq voqealigini o'rganish natijasida amaliyotga tadbiq etishni o'rgatadi. Soliq va soliqqa tortish fanini talabalar jamiyki insonlarga o'rgatishdan maqsad insonlarda soliqlar va yig'img'risida tasavvurni hosil qilish undiriladigan soliq hamda yig'img'rlarning huquqiy asoslarini soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan choralar haqida habrdor bo'lishini yaxshilaydi. Soliqlar bo'yicha izlanish olib borgan olimlarning fikrlari turlicha bo'lib bir biridan farq qiladi. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quydagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi soliq turlari va ularni oshirish, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini takidlaydi va soliq tizimi deganda ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Soliq tizimi murakkab iqtisodiy jarayon hisoblanadi, u davlat siyosati soliq mexanizmi va soliqqa oid ilmiy tadqiqot jarayonlarini o'zaro bog'liqligi va yaxlitligidan iborat bo'lib, paydo bo'lish manbaiga hamda budjetiga tushish jarayoniga qarab turkumladi. Ilmiy maqolalar va qo'llanmalar orqali soliq va soliqqa tortish haqida hamda soliq turlari u qachondan buyon rivojlanib kelmoqda. Shular haqida bilib olamiz. Shu bilan birga egri va to'g'ri soliqlar haqida bilib olamiz. U.To'lakulov, O. Mahmudovlarning "soliqlar va soliqqa tortish" kitobidan soliq turlari, hamda "soliqlar va soliqqa tortish" fani haqida ham bilib olamiz. B.K. Tuxliyev, A.T.Agzamov, B.A.Raxmatullayevlarning "Moliya va soliqlar" kitobidan soliq tizimining guruhlanishi, O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining shakllanishi hamda soliq siyosati haqida bilib olamiz. A.Toshqulov, S.Xudoyqulovlarning "soliq nazariyasi" kitobidan "soliq nazariyasi" fanining rivojlanishi va yuksalishi haqida bilib olishimiz mumkin. Vahobov A. ning "soliqlar va soliqqa tortish" kitobidan budjetdan tashqari jamg'armalarning majburiy ajratmalari haqida bilib olamiz.

Tadqiqot metodologiyasi - mavjud qo'llanmalarni puxta o'rganish, soliqlar va ularning turlari, O'zbekistonda soliq tizimining shakllanishi hamda so'ngi yillardagi ilmiy maqolalarda aks etgan malumotlarni o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Soliqlar iqtisodiy va to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bevosita yoki bilvosita bog'liqligiga qarab to'g'ri soliqlar va egri soliqlarga bo'inadi. To'g'ri soliqlarning asosiy mazmuni to'g'ridan-to'g'ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi. Bunday soliq turlari to'g'ri soliq deyiladi. Aksincha tovarning bahosiga to'lanadigan yoki tarifiga kiritiladigan tovarlar va xizmatlaridan olinadigan soliq turiga egri soliq deyiladi. Hozirgi kunda yurtimizdagi aholidan olinadigan to'g'ri va egri soliqlarga quydagilar kiradi. Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'ri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo'yiladigan tovarning iste'molchisi esa egri soliqlarning pirovard to'lovchisi deb yuritiladi. Amaliyotda nafaqat egri soliqlar, shu bilan birga to'g'ri soliqlarni ham iste'molchilar zimmasiga o'tkazish imkoniyati ham mavjud hisoblanadi. Masalan, korxonalar to'laydigan soliqlar yuki inflyatsiya davrida ko'pincha narx-navoni oshirib yuborish orqali iste'molchilar zimmasiga yuklab borilishini kuzatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida to'g'ri va egri soliqlar tarkibi

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
<ol style="list-style-type: none">1. Foyda solig'i2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i3. Yer solig'i4. Mol-mulk solig'i5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq7. Ijtimoiy soliq	<ol style="list-style-type: none">1. Qo'shilgan qiymat solig'i2. Aksiz solig'i

Soliqni kamaytirish O‘zbekistonda Respublikasining 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishga imkon berdi.¹ 2018 yilgacha bo‘lgan davrda yurtimizda soliq tizimining rivojlanishini taniqli iqtisodchi olimlarimiz 3 bosqichda bo‘lib o‘rganilgan.² Hozirgi kunda O‘zbekistonda milliy soliq tizimining rivojlanishida evolyutsion tusga ega bo‘gan 4 ta bosqichni ajratib ko‘rsatsa bo‘ladi.³

Birinchi bosqich (1991-1995 yillar) – soliq tizimining shakllanish bosqichi hisoblanadi. Soliq tizimi murakkab iqtisodiy tizim hisoblanadi. Ulardan misol qilib inflyatsiyaning yuqori darajasi, xo‘jalik aloqalaridagi uzulishlarni olishimiz mumkin

Ikkinchi bosqich (1996-2005 yillar) – soliq tizimining bozor munosabatlariga moslashtirilishi. Davlat tomonidan xususiy biznesni erkinlashtirish siyosatini olib borilishi iqtisodiyotning o‘shishiga yordam berdi. Birinchi bosqichdan farqli ravishda davlatimiz soliq solishning fiscal va qayta taqsimlash vazifalari bilan bir qatorda uning rag‘batlantiruvchi funksiyasini ham faol tarzda ishga soldi.

Uchinchi bosqich (2006-2017 yillar) - bozor islohotlari va iqtisodiotni modernizatsiyalash sharoitida soliq tizimini takomillashtirish. Bu bosqich asosan iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

To‘rtinchi bosqich (2018 yildan bugungi kunga qadar) - xalqaro norma va standartlar talablari asosida soliq tizimini yanada takomillashtirish bosqichi. Bu bosqichda soliq yukini kamaytirish , soliq solish tizimini soddalashtirish yo‘llariga qaratilgan.

Mamlakatimiz soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida bir qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelayotganini kuzatishimiz mumkin. Xususan, soliq solish maqsadida yer vako‘chmas mulkning kadastr hisobi va qiymatini baholash bilan to‘liq qamrab olish choratadbirlarini amalga oshirish uchun asosan kadastr va soliq organlari ma’lumotlar bazalarini integratsiyalashtirish barobarida mol-mulk va yer solig‘i o‘rniga ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilish chora tadbirlari haqida o‘rganilib borilmoqda. Shuningdek, yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimida yangi bosqich boshlandi , hamda sohani ilg‘or tajriba asosida isloh qilish , rivojlantirish yangicha boshqaruv tizimini joriy etish, yerning hisobini to‘liq yuritish va raqamlashtirish bo‘yicha bir neva vazifalar belgilandi. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi uchun va soliq to‘lovchilarining moliyaviy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi 4947-sonli farmoni.

² Jo‘rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma - Toshkent: Norma 2009. -183-b.

³ To‘lakov U.T. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi rivojlanishning yangi bosqichida. Servis ilmiy-amaliy jurnal, 1(3). 2019. 142-145.

ahvolini hisobga olgan holda mol-mulkka solinadigan soliq miqdorining boshqa davlatlar bilan taqqoslanishi va soliq to'lovchilarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi va soliqlarni to'lash bo'yicha qarz majburiyatlarining o'sishiga, aholi turmush sifatining pasayishiga olib kelmasligi uchun ko'chmas mulkni soliqqa tortishda ijtimoiy adolatni ta'minlash muhim hisoblanishini bir necha manbalarda ko'rib chiqishimiz mumkin.

2018-2021 yillarda soliq to'lovchilar soni haqida malumot⁴

Soliq solish tizimlari	2018 yil	2021 yil	o'sish
Soliq solishning umumbelgilangan Tizimi(QQS va boshqalar)	7 500	145 434	19,4
Soliq solishning soddalashtirilgan Tizimi (YaST va boshqalar)	160 000	299 036	1.9

Budjet daromadlari tarkibini o'zgartirishda iqtisodiy omillar bilan bir qatorda soddalashtirilgan soliq tizimlari nisbatining o'zgarishi muhim orin egallaydi. Bu soliq to'lovchilar soni tepadagi jadvalda keltirilgan. Soliq to'risida to'plangan tarixiy va nazariy ma'lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki soliq fanini o'rganish,uning rivojlanishdagi ahamiyatini bilib chiqish soliq tizimini qurushning metodologik asosi hisoblanadi .”Soliq nazariyasi va tarixi” fanini o'rganish iqtisodiy saviyasini kengaytirishga yordam beradi .

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, soliq ma'muriyatchiligini izchil takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish sohasida islohotlarni davom ettirish uzoq muddatli davrda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish va davlat byudjeti daromadlarini oshirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Biz shuni bilishimiz mumkinki soliqning kelib chiqishi

⁴ <https://www.norma.uz/raznoe/soliq>

davlat paydo bo‘lishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Tarixiy manbalarda shuni ko‘rishimiz mumkinki soliq to‘g‘risida 3760 yil muqaddam Bobilda malumotlar uchraydi. 1993 yilda ishlab chiqilgan tartibga ko‘ra asosiy vositalar hisoblangan amortizatsiyaning 30% i budjetga o‘tkazildi. Xazinani to‘ldirish ya‘ni iqtisodiyotni rivojlantirish uchun 6 % li resurslar solig‘i joriy qilindi. Bulardan shuni bilishimiz mumkinki soliqlar orqali iqtisodiyot rivojlanishi mumkin. Shuningdek 1991-yil 15-fevralidagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida” gi qonunga o‘zgartirishlar kiritildi. Bu kabi o‘zgartirishlar yangiliklar barchasi O‘zbekistonda iqtisodiyotni rivijlantirish uchun olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. U.To‘lakulov ,O.Mahmudovlarning “soliqlar va soliqqa tortish “
2. B.K.Tuxliyev, A.T.Agzamov , B.A.Raxmatullayevlarning “ Moliya va soliqlar “
3. A.Toahqulov , S.Xudoyqulovlarning “soliq nazariyasi” kitobidan “soliq nazariyasi”
4. Vahobov A. ning “soliqlar va soliqqa tortish “
5. T . SH. Amanovich , G‘. A. A‘zamovich , G .S. A‘zamovich larning soliq nazariyasi va tarixi
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
7. <https://www.norma.uz/raznoe/soliq>